



## FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 9-yanvar

17-11-163-Q/25

Farg'ona tumani hokimligi

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-dekabrda  
“Qishloq xo'jaligi maydonlaridagi qo'shimcha imkoniyatlardan foydalangan holda mahsulot  
yetishtirishni ko'paytirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-465-son qarori hamda  
viloyat hokimining 2025-yil 7-yanvardagi 12-11-0-Q/25-sonli qarori ijrosi haqida**

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarining dala chetlari, kanallar, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi maydonlarda hamda aholi tomorqasi, xonadonlar va ko'p qavatli uylar oldi, mahallaning ichki ko'chalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirilishini samarali tashkil qilish va ko'paytirish orqali eksport ko'rsatkichlarini oshirish hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-dekabrda “**Qishloq xo'jaligi maydonlaridagi qo'shimcha imkoniyatlardan foydalangan holda mahsulot yetishtirishni ko'paytirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida**”gi PQ-465-son qarori hamda viloyat hokimining 2025-yil 7-yanvardagi 12-11-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida

### **QAROR QILAMAN:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-dekabrda “Qishloq xo'jaligi maydonlaridagi qo'shimcha imkoniyatlardan foydalangan holda mahsulot yetishtirishni ko'paytirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-465-son qarori hamda viloyat hokimining 2025-yil 7-yanvardagi 12-11-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

**2. Mazkur qaror bilan:**

**dala chetlari hamda aholi tomorqasi, xonadonlar va ko'p qavatli uylar oldi, mahallaning ichki ko'chalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha yangi tartib joriy etilganligi;**

**O'simliklar karantini va himoyasi agentligiga dala chetlarida hamda aholi tomorqasi, xonadonlar va ko'p qavatli uylar oldi, mahallaning ichki ko'chalarida mahsulot yetishtirish, qishloq xo'jaligi subyektlariga urug' va ko'chatlar yetkazib berish hamda yetishtirilgan mahsulotlarni eksportga yo'naltirishni tashkil qilish vazifasi yuklatilganligi;**

Agentlik yil davomida daromadli ekinlar ekish va ularni eksport qilish uchun **meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qiluvchi tadbirkorlarning talablarini o'rganishi;**

Suv xo'jaligi vazirligi tegishli dala chetlarida suv ta'minoti mavjudligi va ushbu yerlarga ekin ekilishi irrigatsiya va melioratsiya tadbirlari amalga oshirilishiga to'sqinlik qilmasligi bo'yicha, Agrosanoatni rivojlantirish agentligi esa tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqib, meva va uzum navlari yuzasidan xulosalarni Agentlikka taqdim etishi;

Agentlik har yili **1-yanvarga qadar** talabni hisobga olgan holda, shuningdek, har bir tuman va mahallaning **iqlim sharoitidan**, bu yerdagi **aholining tajribasidan** kelib chiqib, ekin turlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklariga taklif berishi;

o'simliklar karantini va himoyasi davlat inspektorlari har bir qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilariga alohida biriktirilishi;

qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilariga dala chetlarini ikkilamchi ijaraga berishni tashkil qilish uchun dala chetlariga doir ma'lumotlar (jumladan, mulkchilik shakli, suv ta'minotiga oid) Agentlik tomonidan "Agroko'makchi" mobil dasturida keng jamoatchilikka e'lon qilib borilishi;

Agentlik har yili **15-fevralga qadar** har bir konturga urug', ko'chat tarqatadigan va mahsulotni sotib oladigan tadbirkorlarni aniqlab, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarga bog'lab berishi;

**dala chetlaridan samarali foydalangan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarni qo'llab-quvvatlash maqsadida:**

ichki fitosanitariya sertifikatini bir yil davomida bepul berilishi;

**dala chetlariga** ekilgan "in-vitro" usulida yaratilgan mevali payvandtagli ko'chatlarni sotib olish xarajatlarining 50 foizi miqdorida, biroq har bir mevali payvandtagli ko'chatga 25 ming so'mdan oshmagan holda Agrosanoatni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasidan belgilangan tartibda subsidiya ajratilishi belgilanganligi;

Shuningdek, Agrosanoatni rivojlantirish agentligi Agrosanoatni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasidan mablag'larni tijorat banklarining buyurtmanomalariga asosan Markaziy bankning asosiy stavkasida tijorat banklariga resurs sifatida yo'naltirishi va Agrosanoatni rivojlantirish agentligining tavsiyasiga ko'ra:

qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilari dala chetini o'zlashtirish va mahsulot yetishtirish uchun zarur bo'lgan urug', ko'chatlar, mineral o'g'itlar, kimyoviy preparatlar, moddiy-texnik resurslar bilan ta'minlanishi;

suv bilan ta'minlash uchun nasos va quvurlarni o'rnatish xarajatlarining **50 foizdan** ko'p bo'lmagan qismini qarz oluvchining bank kartalariga o'tkazish yo'li bilan 6 oygacha imtiyozli davr bilan 12 oy muddatga yillik Markaziy bankning asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada kreditlar ajratilishi;

Mazkur resurslar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi PQ-344-son qaroriga asosan Agrosanoatni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasiga Davlat byudjetidan ajratiladigan ssuda mablag'lari hisobidan yo'naltirilishi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-apreldagi "Qishloq xo'jaligi korxonalarida dala chetlaridagi yer maydonlarida mahsulot yetishtirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-121-son qaroriga muvofiq:

**a)** O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi (A. Xaitov) quritish sexi va sovitkichli omborxonalarini xarid qilishga Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisobidan 50 milliard so'm mablag' ajratilishi;

**b)** ushbu mablag'lar Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan:

qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarga 36 oygacha imtiyozli davr bilan 84 oy muddatga yillik 14 foiz stavkada ajratilishi, bunda kredit summasining 60 foizi bo'yicha garov ta'minoti sifatida o'rnatiladigan quritish sexi va sovitkichli omborxonalar olinishi, 40 foizi bo'yicha garov ta'minoti sifatida ularning qaytmaslik xatarini sug'urta qilish bo'yicha sug'urta polisi olinishi;

tashabbuskorlarga quritish sexi va sovitkichli omborxonalar oʻrnatib berilgandan soʻng mahsulot yetkazib beruvchining hisob raqamiga oʻtkazib berish sharti bilan ajratilishi;

dala chetlariga har yili 1-aprelga qadar ekin ekmaganlik va yil davomida mahsulot yetishtirmaganlik holatlari aniqlanganda (fors-major holatlari bundan mustasno):

qishloq xoʻjaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarga ularning barcha qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlari uchun yer soligʻi stavkasi uch karra miqdorida hisoblanishi;

Qishloq xoʻjaligini davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasidan belgilangan tartibda ajratiladigan kredit resurslari hisobidan moliyalashtirish toʻxtatilishi;

dala chetlarini ikkilamchi ijaraga olgan ijarachilarga Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan bazaviy hisoblash miqdorining oʻn baravarigacha miqdorda jarima qoʻllanishi belgilanganligi maʼlumot va ijro uchun qabul qilinsin.

### **3. Quyidagilar:**

**dala chetlari, kanallar, sugʻorish va kollektor-drenaj tarmoqlarining atroflaridagi maydonlarda, aholi tomorqasi, xonadonlar va koʻp qavatli uylar oldi hamda mahallaning ichki koʻchalarida qishloq xoʻjaligi mahsulotlari yetishtirilishini tashkil qilishni muvofiqlashtirish boʻyicha tuman ishchi guruhlarini 1-ilovalarga muvofiq tarkibda tashkil etilsin.**

Tuman ishchi guruhiga (I.Raximov) quyidagi vazifalar yuklatilsin:

har bir tuman boʻyicha **dala chetlaridagi** hamda **xonadon va koʻp qavatli uylar oldi, mahallaning ichki koʻchalaridagi** yer maydonlarini oʻrganib, aniq oʻlchamlarini tasdiqlash;

Kadastr agentligining hududiy boʻlimlari tomonidan mulkchilik huquqi aniqlanmagan dala chetlaridan foydalanish huquqini belgilash va davlat roʻyxatidan oʻtkazish ishlarini tashkil qilish;

har bir tuman kesimida **dala chetlarida** hamda aholi **tomorqasi, xonadonlar va koʻp qavatli uylar oldi, mahallaning ichki koʻchalarida** ekin ekiladigan maydon va mahsulot turlarini oʻz ichiga oluvchi maʼlumotlar bazasini tegishli yilning **15-fevraliga qadar** shakllantirish;

dala chetlarida hamda aholi **tomorqasi, xonadonlar va koʻp qavatli uylar oldi, mahallaning ichki koʻchalarida** ekish uchun hududlarning tuproq-iqlim sharoitiga mos urugʻ va koʻchatlar tanlab olinishi boʻyicha tavsiyalar berish hamda agrotexnik tadbirlarni subyektlar kesimida tashkil qilish;

hosildor urugʻ va koʻchat navlarining, shuningdek, mineral oʻgʻit va kimyoviy preparatlarning oʻz vaqtida yetkazib berilishini tashkil etish;

yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining sotuvini, shu jumladan, "Uzex Agro" elektron savdo platformasi orqali tashkil qilish.

### **4. Tuman ishchi guruhlariga quyidagi vakolatlar berilsin:**

dala chetlarini ikkilamchi ijaraga olish istagini bildirgan talabgorlar roʻyxatini (keyingi oʻrinlarda -talabgorlar) shakllantirish. Bunda talabgorlar roʻyxatini shakllantirishda kambagʻal oilalarning aʼzolariga ustuvorlik beriladi;

dala chetlariga har yili 1-aprelga qadar ekin ekmagan va yil davomida mahsulot yetishtirmagan yerdan foydalanuvchilarga nisbatan dalolatnoma rasmiylashtirib, jarima qoʻllash uchun Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasiga taqdim qilish, shuningdek, Qishloq xoʻjaligini davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasidan ajratiladigan kredit resurslari hisobidan moliyalashtirishni toʻxtatish yuzasidan tegishli tijorat banklariga murojaat qilish;

doimiy foydalanish huquqi asosida berilgan yerlarda joylashgan dala chetlaridan bir yil mobaynida unumli foydalanmaganligi yuzasidan ushbu yerlar biriktirilgan davlat organlariga taqdimnomalar kiritish;

dala chetlarining egalik qiluvchisi, foydalanuvchisi va ijarachisi har yili **1-aprelga qadar** ushbu yer maydoniga ekin ekmagan yoki ikkilamchi ijaraga bermaganda, dala chetlarini talabgorlarga toʻgʻridan-toʻgʻri oʻn yilgacha muddatga ikkilamchi ijaraga berish haqida dala chetlarining egalik qiluvchisi, foydalanuvchisi va ijarachisiga talabnoma kiritish.

5. Ushbu qarorda belgilangan chora-tadbirlarning samarali va o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida:

a) Tuman suv yetkazib berish DM (L.Jo'rayev) dala chetlarida ekilgan qishloq xo'jaligi ekinlarini o'z vaqtida suv bilan ta'minlash uchun mas'ul ekanligi ko'rsatib o'tilsin;

b) O'simliklar karantini va himoyasi bo'limi v.v.b (U.Eminova) dala chetlarida qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish, ularni zararli organizmlardan himoya qilishning uyg'unlashgan, samarali va innovasion uslublarini joriy qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqilishi hamda seminar va treninglar o'tkazilishini tashkil qilsin;

v) Tuman hokimining birinchi o'rinbosari O.Abduraximov:

ishchi guruhlarning tavsiyasiga asosan, dala chetida yetishtirilgan mahsulotlarni aholiga yetkazib beruvchi tadbirkorlarga dehqon bozorlari, savdo markazlari va transport qatnovi gavjum avtomobil yo'llari chetlaridan joy ajratib berishni, harakatlanuvchi ko'chma do'konlar faoliyatini yo'lga qo'ysin;

g) Tuman hokimining o'rinbosari I.Raximov dala chetlaridan samarali foydalanish va qo'shimcha qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha ilg'or tajribaga ega usta dehqonlar tomonidan **2-ilovaga** muvofiq hududlarda har yili mart-aprel oylarida hamda takroriy ekin ekiladigan iyun-iyul oylarida har haftaning ikki kuni mobaynida ko'rgazmali seminarlar tashkil qilsin.

6. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarining dala chetlari hamda kanallar, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi maydonlarda eksportbop mevali daraxtlar ekish prognoz ko'rsatkichlari **3-** va **4-ilovalarga** muvofiq;

qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarining dala chetlari hamda kanallar, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi maydonlarni aniqlash mezonlari **5-ilovaga** muvofiq;

qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilari tomonidan dala chetlari hamda kanallar, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi maydonlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini samarali yetishtirilishini tashkil qilish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi **6-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

7. Farg'ona teleradiokompaniyasi O'simliklar karantini va himoyasi bo'limi bilan birgalikda ushbu qarorning mazmun-mohiyati hamda maqsad va vazifalarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini tashkil etsin.

8. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib tuman hokimining o'rinbosari (I.Raximov), tuman prokurorining 1-o'rinbosari (H.Mo'minov), tuman ichki ishlar boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari (B.Toshmatov), O'simliklar karantini va himoyasi bo'limi boshlig'i v.v.b (U.Eminova), Agroinspeksiya rahbari (Sh.Xasanov), Qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'i v.v.b(R.Apponov), Suv yetkazib berish xizmati DM (L.Jo'rayev), Kadastr agentligi boshlig'i (V.Esonov), Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi raisi (A.Akbarov), Mahallalar uyushmasi boshlig'i (D.Xomidov) belgilansin.

9. Qaror ijrosini doimiy muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari I.Raximov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi v.v.b**



**ABDURAXIMOV  
OTABEK.NEMATOVICH**



Farg‘ona tuman hokimining  
2025-yil 9-yanvardagi  
17-11-163-Q/25-son qaroriga  
1-ilova

Dala chetlari, kanallar, sug‘orish va kollektor-drenaj tarmoqlarining atroflaridagi maydonlarda, aholi tomorqasi, xonadonlar va ko‘p qavatli uylar oldi hamda mahallaning ichki ko‘chalarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirilishini tashkil

qilishni muvofiqlashtirish bo‘yicha  
TUMAN ISHCHI GURUHI

| T/r | Ismi familiyasi    | Lavozimi  |
|-----|--------------------|---|
| 1   | <i>X.Inomov</i>    | Tuman hokimi, <b>tuman ishchi guruhi rahbari</b>  |
| 2   | <i>B.Boboqulov</i> | Tuman prokurori, <b>tuman ishchi guruhi rahbarining o‘rinbosari</b>   |
| 3   | <i>J.Xasanov</i>   | Tuman ichki ishlar bo‘limi, <b>tuman ishchi guruhi rahbarining o‘rinbosari</b>  |
| 4   | <i>I.Sharopov</i>  | Tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i, <b>tuman ishchi guruhi rahbarining o‘rinbosari</b>  |
| 5   | <i>I.Raximov</i>   | Tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari - tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i                                   |
| 6   | <i>L.Jo‘rayev</i>  | Tuman “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi direktori   |
| 7   | <i>Sh.Xasanov</i>  | Tuman Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i  |
| 8   | <i>U.Eminova</i>   | Tuman o‘simliklar karantini va himoyasi bo‘limi boshlig‘i v.v.b   |
| 9   | <i>D.Homidov</i>   | Tuman mahallalar bo‘limi boshlig‘i  |
| 10  | <i>A.Akbarov</i>   | Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining tuman kengashi rahbari  |
| 11  | <i>V.Esonov</i>    | Tuman kadastr bo‘limi boshlig‘i   |
| 12  | <i>M.Haydarova</i> | Tuman o‘simliklar karantini va himoyasi bo‘limi prognozlashtirish va monitoring qilish bo‘yicha yetakchi mutaxassisi, <b>tuman ishchi guruhi kotibi</b> |

Izoh: Ishchi guruh a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.

Fargʻona tuman hokimining  
2025-yil 9-yanvardagi  
17-11-163-Q/25-son qaroriga  
2-ilova

**Fargʻona tumanidagi usta dehqonlarning respublika hududlarida  
dala chetlari hamda kanallar, sugʻorish va kollektor-drenaj tarmoqlarining  
atroflaridagi maydonlardan samarali foydalanish boʻyicha koʻrgazmali  
seminarlar tashkil qilish uchun**

**BIRIKTIRILISHI**

| <b>T/r</b> | <b>Seminar oʻtkaziladigan hudud nomi</b> | <b>Seminar oʻtkazishga masʼul hudud</b> |
|------------|--|---|
| 1          | Fargʻona tumani                          | Xonqiz massivi                          |







|    |                             |            |            |            |            |            |            |            |            |            |  |  |            |            |  |  |            |            |
|----|-----------------------------|------------|------------|------------|------------|------------|------------|------------|------------|------------|--|--|------------|------------|--|--|------------|------------|
| 38 | Inoyatxon Shaxnoza          | 0,4        | 0,4        | 0,3        |            |            | 0,4        | 0,3        |            |            |  |  |            |            |  |  |            |            |
| 39 | G'ayratjonov Xojiakbar      | 0,2        | 0,2        | 0,2        |            |            |            |            | 0,2        | 0,2        |  |  |            |            |  |  |            |            |
| 40 | Elnoraxon Aliyorbek         | 0,4        | 0,4        | 0,3        |            |            |            |            | 0,4        | 0,3        |  |  |            |            |  |  |            |            |
| 41 | Vodil Axmadjon axror yeri   | 0,3        | 0,3        | 0,3        | 0,3        | 0,3        |            |            |            |            |  |  |            |            |  |  |            |            |
|    | <b>Vodil Qizil Qo'rg'on</b> | <b>2,6</b> | <b>2,6</b> | <b>2,0</b> | <b>0,7</b> | <b>0,6</b> | <b>1,3</b> | <b>0,8</b> | <b>0,6</b> | <b>0,5</b> |  |  |            |            |  |  |            |            |
| 42 | Fergana Oseana              | 5,0        | 5,0        | 4,3        |            |            | 2,0        | 1,3        |            |            |  |  | 2,0        | 1,0        |  |  | 1,0        | 2,0        |
| 51 | Avval Rustam zamini         | 0,4        | 0,4        | 0,3        | 0,4        | 0,3        |            |            |            |            |  |  |            |            |  |  |            |            |
| 52 | Avval Sobirjon zamini       | 0,4        | 0,4        | 0,3        |            |            |            |            | 0,4        | 0,3        |  |  |            |            |  |  |            |            |
| 53 | Muxammadrasul ziyosi        | 0,5        | 0,5        | 0,4        | 0,5        | 0,4        |            |            |            |            |  |  |            |            |  |  |            |            |
| 54 | Parizoda Dilfuza            | 0,6        | 0,6        | 0,5        |            |            |            |            | 0,6        | 0,5        |  |  |            |            |  |  |            |            |
| 55 | Avval Bexruzбек             | 0,4        | 0,4        | 0,3        |            |            | 0,4        | 0,3        |            |            |  |  |            |            |  |  |            |            |
| 56 | Avval Obidjonobod fayzi     | 0,0        | 0,0        | 0,0        |            |            |            |            | 0,0        | 0,0        |  |  |            |            |  |  |            |            |
|    | <b>Avval Usmonjon</b>       | <b>7,3</b> | <b>7,3</b> | <b>6,2</b> | <b>0,9</b> | <b>0,8</b> | <b>2,4</b> | <b>1,6</b> | <b>1,0</b> | <b>0,9</b> |  |  | <b>2,0</b> | <b>1,0</b> |  |  | <b>1,0</b> | <b>2,0</b> |



|    |                            |            |            |            |            |            |            |            |            |            |  |  |            |            |            |            |  |  |
|----|----------------------------|------------|------------|------------|------------|------------|------------|------------|------------|------------|--|--|------------|------------|------------|------------|--|--|
|    | Saodatxon bog'i            |            |            |            |            |            |            |            |            |            |  |  |            |            |            |            |  |  |
| 82 | Muhammadsodiq Yusuf zamini | 0,6        | 0,6        | 0,4        |            |            | 0,6        | 0,4        |            |            |  |  |            |            |            |            |  |  |
| 83 | Mindon Sulaymoni           | 0,4        | 0,4        | 0,3        |            |            | 0,4        | 0,3        |            |            |  |  |            |            |            |            |  |  |
| 84 | Mindon Chashma agro        | 0,4        | 0,4        | 0,3        |            |            |            |            | 0,4        | 0,3        |  |  |            |            |            |            |  |  |
| 85 | Mindon Kamolboyvochcha     | 0,4        | 0,4        | 0,3        |            |            |            |            | 0,4        | 0,3        |  |  |            |            |            |            |  |  |
| 86 | DNSU                       | 0,5        | 0,5        | 0,2        |            |            |            |            |            |            |  |  | 0,5        | 0,2        |            |            |  |  |
| 87 | Iqbol Mirzo zamini         | 0,6        | 0,6        | 0,3        |            |            |            |            |            |            |  |  | 0,6        | 0,3        |            |            |  |  |
| 88 | Mindon Rasuljonov Ikboljon | 0,4        | 0,4        | 0,2        |            |            |            |            |            |            |  |  | 0,4        | 0,2        |            |            |  |  |
| 89 | Mindon Abduraxmoni         | 0,4        | 0,4        | 0,2        |            |            |            |            |            |            |  |  | 0,4        | 0,2        |            |            |  |  |
| 90 | Mindon Olimjon Sirojiddin  | 0,4        | 0,4        | 0,3        | 0,4        | 0,3        |            |            |            |            |  |  |            |            |            |            |  |  |
| 91 | Moxitabonu Nixollari       | 0,0        | 0,0        | 0,0        |            |            |            |            |            |            |  |  |            |            | 0,0        | 0,0        |  |  |
| 92 | Fergana Oseana             | 1,1        | 1,1        | 0,6        |            |            |            |            |            |            |  |  | 1,1        | 0,6        |            |            |  |  |
|    | <b>Mindon Jami</b>         | <b>5,7</b> | <b>5,7</b> | <b>3,6</b> | <b>0,9</b> | <b>0,8</b> | <b>1,0</b> | <b>0,7</b> | <b>0,8</b> | <b>0,7</b> |  |  | <b>3,0</b> | <b>1,5</b> | <b>0,0</b> | <b>0,0</b> |  |  |
| 93 | Chimyon                    | 0,5        | 0,5        | 0,2        |            |            |            |            |            |            |  |  | 0,5        | 0,2        |            |            |  |  |

|     |                             |            |            |            |  |  |            |            |  |  |  |  |            |            |            |            |  |  |
|-----|-----------------------------|------------|------------|------------|--|--|------------|------------|--|--|--|--|------------|------------|------------|------------|--|--|
|     | Shuxrati                    |            |            |            |  |  |            |            |  |  |  |  |            |            |            |            |  |  |
| 94  | Mamajon Ziyo Javoxir        | 0,6        | 0,6        | 0,3        |  |  |            |            |  |  |  |  | 0,6        | 0,3        |            |            |  |  |
| 95  | Paxtaboy Agroinvest         | 0,4        | 0,4        | 0,3        |  |  | 0,4        | 0,3        |  |  |  |  |            |            |            |            |  |  |
| 96  | Foziljon Rustamjon zamini   | 0,4        | 0,4        | 0,2        |  |  |            |            |  |  |  |  | 0,4        | 0,2        |            |            |  |  |
| 97  | Bog‘bon Raximberdi Xatamjon | 0,4        | 0,4        | 0,2        |  |  |            |            |  |  |  |  | 0,4        | 0,2        |            |            |  |  |
| 98  | Axmadali Aqoiddin           | 0,0        | 0,0        | 0,0        |  |  |            |            |  |  |  |  | 0,0        | 0,0        |            |            |  |  |
| 99  | Shukurov Abduvoxid          | 0,0        | 0,0        | 0,0        |  |  |            |            |  |  |  |  | 0,0        | 0,0        |            |            |  |  |
| 100 | Fergana Oseana              | 2,8        | 2,8        | 1,4        |  |  |            |            |  |  |  |  | 1,9        | 0,9        | 0,9        | 0,4        |  |  |
|     | <b>Chimyon Jami</b>         | <b>5,2</b> | <b>5,2</b> | <b>2,7</b> |  |  | <b>0,4</b> | <b>0,3</b> |  |  |  |  | <b>3,9</b> | <b>1,9</b> | <b>0,9</b> | <b>0,4</b> |  |  |
| 101 | Odil Muxammad Nizomov       | 0,8        | 0,8        | 0,5        |  |  | 0,8        | 0,5        |  |  |  |  |            |            |            |            |  |  |
| 102 | Sherzod                     | 0,6        | 0,6        | 0,3        |  |  |            |            |  |  |  |  | 0,6        | 0,3        |            |            |  |  |
| 103 | Chimyon quyi Archa          | 0,2        | 0,2        | 0,1        |  |  |            |            |  |  |  |  | 0,2        | 0,1        |            |            |  |  |
| 104 | Chimyon Bo‘stoni            | 0,6        | 0,6        | 0,3        |  |  |            |            |  |  |  |  | 0,6        | 0,3        |            |            |  |  |
| 105 | Paxlavon Chimyon            | 0,2        | 0,2        | 0,1        |  |  |            |            |  |  |  |  | 0,2        | 0,1        |            |            |  |  |

|     |                             |             |             |             |            |            |            |            |  |  |             |             |            |            |            |            |            |
|-----|-----------------------------|-------------|-------------|-------------|------------|------------|------------|------------|--|--|-------------|-------------|------------|------------|------------|------------|------------|
| 106 | Yuqori Archa O'rikzor       | 0,8         | 0,8         | 0,4         |            |            |            |            |  |  |             | 0,8         | 0,4        |            |            |            |            |
| 107 | Isakov Avazbek Mevalari     | 0,6         | 0,6         | 0,3         |            |            |            |            |  |  |             | 0,6         | 0,3        |            |            |            |            |
| 108 | Abduboqiota zamini 2020     | 0,2         | 0,2         | 0,2         | 0,2        | 0,2        |            |            |  |  |             |             |            |            |            |            |            |
| 109 | Dilshod Durdona Xabibullo   | 0,0         | 0,0         | 0,0         |            |            |            |            |  |  |             | 0,0         | 0,0        |            |            |            |            |
| 110 | Buloqboshi Yangiyer         | 0,0         | 0,0         | 0,0         |            |            |            |            |  |  |             | 0,0         | 0,0        |            |            |            |            |
| 111 | Usta xoshim xoji            | 0,0         | 0,0         | 0,0         |            |            |            |            |  |  |             | 0,0         | 0,0        |            |            |            |            |
| 112 | Fergana Oseana              | 2,6         | 2,6         | 2,9         |            |            |            |            |  |  |             |             |            | 1,6        | 0,8        | 1,0        | 2,1        |
|     | <b>Xazrati Xuvaydo</b>      | <b>6,7</b>  | <b>6,8</b>  | <b>5,1</b>  | <b>0,2</b> | <b>0,2</b> | <b>0,8</b> | <b>0,5</b> |  |  |             | <b>3,1</b>  | <b>1,6</b> | <b>1,6</b> | <b>0,8</b> | <b>1,0</b> | <b>2,1</b> |
| 113 | Fergana Oseana              | 12,8        | 12,8        | 13,7        |            |            | 0,7        | 0,5        |  |  | 12,1        | 13,3        |            |            |            |            |            |
|     | <b>Oqbilol Sobirjon</b>     | <b>12,8</b> | <b>12,8</b> | <b>13,7</b> |            |            | <b>0,7</b> | <b>0,5</b> |  |  | <b>12,1</b> | <b>13,3</b> |            |            |            |            |            |
| 134 | Dashtda gul                 | 0,8         | 0,8         | 0,9         |            |            |            |            |  |  | 0,8         | 0,9         |            |            |            |            |            |
| 149 | Saidolim Farxod             | 0,6         | 0,6         | 0,6         | 0,3        | 0,3        |            |            |  |  | 0,3         | 0,3         |            |            |            |            |            |
|     | <b>Yangi bog' Raxmonali</b> | <b>1,4</b>  | <b>1,4</b>  | <b>1,5</b>  | <b>0,3</b> | <b>0,3</b> |            |            |  |  | <b>1,1</b>  | <b>1,2</b>  |            |            |            |            |            |
| 150 | Alijon Dilshod Baraka       | 0,8         | 0,8         | 0,4         |            |            |            |            |  |  |             | 0,8         | 0,4        |            |            |            |            |







|  |                   |              |                   |             |            |            |             |             |             |             |             |             |             |             |            |            |            |             |
|--|-------------------|--------------|-------------------|-------------|------------|------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|------------|------------|------------|-------------|
|  | <b>Tuman jami</b> | <b>123,0</b> | <b>123,<br/>1</b> | <b>99,3</b> | <b>6,1</b> | <b>5,2</b> | <b>24,6</b> | <b>16,0</b> | <b>12,3</b> | <b>10,5</b> | <b>24,6</b> | <b>27,0</b> | <b>36,9</b> | <b>18,4</b> | <b>9,9</b> | <b>4,9</b> | <b>8,6</b> | <b>17,2</b> |
|--|-------------------|--------------|-------------------|-------------|------------|------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|------------|------------|------------|-------------|

Fargʻona tuman hokimining  
2025-yil 9-yanvardagi  
17-11-163-Q/25-son qaroriga  
4-ilova

**Fargʻona tumanida 2025 yilda kanallar, sugʻorish va kollekt-r-drenaj tarmoqlari atrofidagi maydonlarga  
mevali daraxtlar ekish  
PROGNOZ KOʻRSATKICHLARI**

| T/r | Kanallar,<br>sugʻorish va<br>kollekt-r-drenaj<br>tarmoqlari<br>nomi | Jami<br>kanal-<br>kollekt-r<br>atroflari<br>dagi<br>ekin<br>ekiladig<br>an<br>maydon<br>, (ga) | 2025 yilda<br>koʻchatlar<br>ekish |  | shundan             |   |                     |   |                     |   |                     |   |                     |   |                     |   |                     |   |
|-----|---|--|-----------------------------------|--|---------------------|---|---------------------|---|---------------------|---|---------------------|---|---------------------|---|---------------------|---|---------------------|---|
|     |   |  | mayd<br>on,<br>(ga)               | koʻc<br>hat<br>soni,<br>(min<br>g<br>dona<br>) | olcha               |   | olhoʻri             |   | bexi                |   | uzum                |   | bodom               |   | chilon<br>jiyda     |   | tut daraxti         |   |
|     |   |  |                                   |  | mayd<br>on,<br>(ga) | koʻc<br>hat<br>soni<br>(min<br>g<br>dona<br>) | mayd<br>on,<br>(ga) | koʻc<br>hat<br>soni<br>(min<br>g<br>dona<br>) | mayd<br>on,<br>(ga) | koʻc<br>hat<br>soni<br>(min<br>g<br>dona<br>) | mayd<br>on,<br>(ga) | koʻc<br>hat<br>soni<br>(min<br>g<br>dona<br>) | mayd<br>on,<br>(ga) | koʻc<br>hat<br>soni<br>(min<br>g<br>dona<br>) | mayd<br>on,<br>(ga) | koʻc<br>hat<br>soni<br>(min<br>g<br>dona<br>) | mayd<br>on,<br>(ga) | koʻc<br>hat<br>soni<br>(min<br>g<br>dona<br>) |
| 1   | Arabtepa  | 4  | 4,4                               | 4,0  | 1,0                 | 0,9   | 1,0                 | 0,7   | 0,7                 | 0,6   | 0,7                 | 0,8   |                     |   |                     |   | 1,0                 | 2,0   |
| 2   | Kaptarxona  | 1  | 0,6                               | 0,6  |                     |   |                     |   |                     |   |                     |   |                     |   |                     |   | 0,6                 | 1,3   |
| 3   | Fayziobod<br>oy   | 5  | 4,9                               | 4,5  | 1,9                 | 1,6   | 1,0                 | 0,7   |                     |   |                     |   | 1,0                 | 0,5   |                     |   | 1,0                 | 2,0   |
| 4   | Logʻon<br>kanali  | 5  | 5,0                               | 4,5  | 1,0                 | 0,9   | 1,0                 | 0,7   | 1,0                 | 0,9   | 1,0                 | 1,1   |                     |   |                     |   | 1,0                 | 2,0   |
| 5   | Fayziobod<br>beton kanali   | 1  | 0,9                               | 0,8  |                     |   |                     |   | 0,9                 | 0,8   |                     |   |                     |   |                     |   |                     |   |
| 6   | Chimyonso<br>y  | 2  | 2,3                               | 2,1  | 1,2                 | 1,0   | 1,0                 | 0,7   |                     |   |                     |   | 0,1                 | 0,1   |                     |   |                     |   |









|    |             |     |     |     |     |     |  |  |  |  |  |  |     |     |  |     |     |
|----|-------------|-----|-----|-----|-----|-----|--|--|--|--|--|--|-----|-----|--|-----|-----|
| 49 | FB-1-2      | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 |  |  |  |  |  |  |     |     |  |     |     |
| 50 | FSHA        | 0,3 | 0,3 | 0,3 |     |     |  |  |  |  |  |  |     |     |  | 0,3 | 0,7 |
| 51 | FSHA-1      | 0,1 | 0,1 | 0,1 |     |     |  |  |  |  |  |  |     |     |  | 0,1 | 0,2 |
| 52 | FSHA-1-1    | 0,0 | 0,0 | 0,0 |     |     |  |  |  |  |  |  |     |     |  | 0,0 | 0,0 |
| 53 | Yangiariq   | 0,2 | 0,2 | 0,2 |     |     |  |  |  |  |  |  |     |     |  | 0,2 | 0,5 |
| 54 | Yangiariq-3 | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 |  |  |  |  |  |  |     |     |  |     |     |
| 55 | Yangiariq-2 | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 |  |  |  |  |  |  |     |     |  |     |     |
| 56 | Yangiariq-1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 |  |  |  |  |  |  |     |     |  |     |     |
| 57 | Ferma       | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 |  |  |  |  |  |  |     |     |  |     |     |
| 58 | Ferma-1     | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |  |  |  |  |  |  |     |     |  |     |     |
| 59 | Ferma-2     | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |  |  |  |  |  |  |     |     |  |     |     |
| 60 | DS-2-1      | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 |  |  |  |  |  |  |     |     |  |     |     |
| 61 | Yangi       | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 |  |  |  |  |  |  |     |     |  |     |     |
| 62 | Yangi-1     | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 |  |  |  |  |  |  |     |     |  |     |     |
| 63 | Yangi-2     | 0,3 | 0,3 | 0,3 | 0,3 | 0,3 |  |  |  |  |  |  |     |     |  |     |     |
| 64 | Nurbobo     | 0,2 | 0,2 | 0,1 |     |     |  |  |  |  |  |  | 0,2 | 0,1 |  |     |     |
| 65 | Nurbobo-1   | 0,1 | 0,1 | 0,1 |     |     |  |  |  |  |  |  | 0,1 | 0,1 |  |     |     |
| 66 | Nurbobo-2   | 0,0 | 0,0 | 0,0 |     |     |  |  |  |  |  |  | 0,0 | 0,0 |  |     |     |
| 67 | Nurbobo-3   | 0,1 | 0,1 | 0,0 |     |     |  |  |  |  |  |  | 0,1 | 0,0 |  |     |     |
| 68 | Nurbobo-4   | 0,2 | 0,2 | 0,2 |     |     |  |  |  |  |  |  | 0,2 | 0,1 |  |     |     |
| 69 | Nurbobo-5   | 0,1 | 0,1 | 0,1 |     |     |  |  |  |  |  |  | 0,1 | 0,0 |  |     |     |
| 70 | Nurbobo-4-2 | 0,1 | 0,1 | 0,1 |     |     |  |  |  |  |  |  | 0,1 | 0,0 |  |     |     |



|                    |               |     |     |     |     |     |     |     |  |  |  |     |     |     |     |  |  |
|--------------------|---------------|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|--|--|--|-----|-----|-----|-----|--|--|
| 71                 | Nurbobo-8     | 0,0 | 0,0 | 0,0 |     |     |     |     |  |  |  | 0,0 | 0,0 |     |     |  |  |
| 72                 | Nurbobo-4-1,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 |     |     |     |     |  |  |  | 0,1 | 0,0 |     |     |  |  |
| 73                 | Nurbobo-4-1   | 0,0 | 0,0 | 0,0 |     |     |     |     |  |  |  | 0,0 | 0,0 |     |     |  |  |
| 74                 | Oqtosh        | 0,1 | 0,1 | 0,1 |     |     | 0,1 | 0,1 |  |  |  |     |     |     |     |  |  |
| 75                 | Oqtosh -1     | 0,2 | 0,2 | 0,2 |     |     |     |     |  |  |  |     |     | 0,2 | 0,1 |  |  |
| 76                 | Juma          | 0,3 | 0,3 | 0,2 | 0,3 | 0,2 |     |     |  |  |  |     |     |     |     |  |  |
| 77                 | Juma-2        | 0,3 | 0,3 | 0,2 | 0,3 | 0,2 |     |     |  |  |  |     |     |     |     |  |  |
| 78                 | Juma-3        | 0,1 | 0,1 | 0,0 | 0,1 | 0,0 |     |     |  |  |  |     |     |     |     |  |  |
| 79                 | Juma-2,1      | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 |     |     |  |  |  |     |     |     |     |  |  |
| 80                 | Juma-2,2      | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 |     |     |  |  |  |     |     |     |     |  |  |
| 81                 | Mayak-1       | 0,2 | 0,2 | 0,2 | 0,2 | 0,2 |     |     |  |  |  |     |     |     |     |  |  |
| 82                 | Mayak-2       | 0,2 | 0,2 | 0,2 | 0,2 | 0,2 |     |     |  |  |  |     |     |     |     |  |  |
| 83                 | Mayak-3       | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 |     |     |  |  |  |     |     |     |     |  |  |
| <b>Xirmon aziz</b> |               |     |     |     |     |     |     |     |  |  |  |     |     |     |     |  |  |
| 84                 | KSV-0         | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |     |     |  |  |  |     |     |     |     |  |  |
| 85                 | KSV-1         | 0,1 | 0,1 | 0,1 |     |     |     |     |  |  |  | 0,1 | 0,0 |     |     |  |  |
| 86                 | KSV-2         | 0,1 | 0,1 | 0,1 |     |     |     |     |  |  |  | 0,1 | 0,0 |     |     |  |  |
| 87                 | KSV-3         | 0,0 | 0,0 | 0,0 |     |     |     |     |  |  |  | 0,0 | 0,0 |     |     |  |  |
| 88                 | KSV-4         | 0,0 | 0,0 | 0,0 |     |     |     |     |  |  |  | 0,0 | 0,0 |     |     |  |  |
| 89                 | KSV-4-1       | 0,0 | 0,0 | 0,0 |     |     |     |     |  |  |  | 0,0 | 0,0 |     |     |  |  |
| 90                 | KSV-4-1-1     | 0,1 | 0,1 | 0,1 |     |     |     |     |  |  |  | 0,1 | 0,0 |     |     |  |  |
| 91                 | KSV-5         | 0,1 | 0,1 | 0,1 |     |     |     |     |  |  |  | 0,1 | 0,0 |     |     |  |  |
| 92                 | KSV-5-1       | 0,0 | 0,0 | 0,0 |     |     |     |     |  |  |  | 0,0 | 0,0 |     |     |  |  |

|     |                    |     |     |     |     |     |  |  |  |  |  |     |     |  |  |     |     |
|-----|--------------------|-----|-----|-----|-----|-----|--|--|--|--|--|-----|-----|--|--|-----|-----|
| 93  | Nasos              | 0,2 | 0,2 | 0,1 |     |     |  |  |  |  |  | 0,2 | 0,1 |  |  |     |     |
| 94  | Nasos-2            | 0,1 | 0,1 | 0,1 |     |     |  |  |  |  |  | 0,1 | 0,0 |  |  |     |     |
| 95  | KSV-7              | 0,3 | 0,3 | 0,3 |     |     |  |  |  |  |  | 0,3 | 0,2 |  |  |     |     |
| 96  | SV-1               | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 |  |  |  |  |  |     |     |  |  |     |     |
| 97  | SV-2               | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 |  |  |  |  |  |     |     |  |  |     |     |
| 98  | SV-3               | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 |  |  |  |  |  |     |     |  |  |     |     |
| 99  | SV-4               | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,0 |  |  |  |  |  |     |     |  |  |     |     |
| 100 | SV-5               | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 |  |  |  |  |  |     |     |  |  |     |     |
| 101 | SV-6               | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |  |  |  |  |  |     |     |  |  |     |     |
| 102 | SV-7               | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 |  |  |  |  |  |     |     |  |  |     |     |
| 103 | Cheksho'ra         | 0,6 | 0,6 | 0,5 | 0,6 | 0,5 |  |  |  |  |  |     |     |  |  |     |     |
| 104 | Satkak-1-2         | 0,2 | 0,2 | 0,1 | 0,2 | 0,1 |  |  |  |  |  |     |     |  |  |     |     |
| 105 | Cheksho'ra<br>-1-1 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |  |  |  |  |  |     |     |  |  |     |     |
|     |                    |     |     |     |     |     |  |  |  |  |  |     |     |  |  |     |     |
| 106 | Satkak             | 0,3 | 0,3 | 0,3 | 0,3 | 0,3 |  |  |  |  |  |     |     |  |  |     |     |
| 107 | Satkak-1           | 0,3 | 0,3 | 0,2 |     |     |  |  |  |  |  |     |     |  |  | 0,3 | 0,5 |
| 108 | Satkak-2-2         | 0,0 | 0,0 | 0,0 |     |     |  |  |  |  |  |     |     |  |  | 0,0 | 0,1 |
| 109 | Satkak-2-1         | 0,0 | 0,0 | 0,0 |     |     |  |  |  |  |  |     |     |  |  | 0,0 | 0,1 |
| 110 | Satkak-1-1         | 0,0 | 0,0 | 0,0 |     |     |  |  |  |  |  |     |     |  |  | 0,0 | 0,0 |
| 111 | Nassos-2a          | 0,0 | 0,0 | 0,0 |     |     |  |  |  |  |  |     |     |  |  | 0,0 | 0,1 |
|     | <b>Vodil</b>       |     |     |     |     |     |  |  |  |  |  |     |     |  |  |     |     |
| 112 | Qorayanto<br>q     | 0,5 | 0,5 | 0,5 |     |     |  |  |  |  |  | 0,5 | 0,2 |  |  |     |     |
| 113 | XT-1               | 0,0 | 0,0 | 0,0 |     |     |  |  |  |  |  | 0,0 | 0,0 |  |  |     |     |



|     |  |             |             |             |             |             |             |            |            |            |            |            |            |            |            |            |            |             |
|-----|--|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|------------|------------|------------|------------|------------|------------|------------|------------|------------|------------|-------------|
| 136 | BD-0-1-2                                 | 0,3         | 0,3         | 0,2         | 0,3         | 0,2         |             |            |            |            |            |            |            |            |            |            |            |             |
| 137 | UD-14-1                                  | 0,0         | 0,0         | 0,0         | 0,0         | 0,0         |             |            |            |            |            |            |            |            |            |            |            |             |
| 138 | UD-7                                     | 0,1         | 0,1         | 0,1         | 0,1         | 0,1         |             |            |            |            |            |            |            |            |            |            |            |             |
|     |  |             |             |             |             |             |             |            |            |            |            |            |            |            |            |            |            |             |
|     | <b>Kollektor<br/>tarmoqlari<br/>jami</b> | <b>19,1</b> | <b>19,1</b> | <b>17,3</b> | <b>9,9</b>  | <b>8,5</b>  | <b>3,9</b>  | <b>2,5</b> |            |            | <b>0,1</b> | <b>0,1</b> | <b>3,7</b> | <b>1,8</b> | <b>0,6</b> | <b>0,3</b> | <b>1,1</b> | <b>2,1</b>  |
|     | <b>Tuman<br/>bo'yicha<br/>jami:</b>      | <b>67,4</b> | <b>67,4</b> | <b>61,0</b> | <b>16,8</b> | <b>14,3</b> | <b>12,1</b> | <b>7,9</b> | <b>8,1</b> | <b>6,9</b> | <b>8,8</b> | <b>9,7</b> | <b>7,4</b> | <b>3,7</b> | <b>6,7</b> | <b>3,8</b> | <b>7,4</b> | <b>14,8</b> |

Fargʻona tuman hokimining  
2025-yil 9-yanvardagi  
17-11-163-Q/25-son qaroriga  
5-ilova

**Qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yer uchastkalarining dala chetlari hamda  
kanallar, sugʻorish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi maydonlarni  
aniqlash  
MEZONLARI**

1. Ekin dalalarining kanallar, sugʻorish va kollektor-drenaj tarmoqlari bilan tutashgan joyi yoki mazkur tarmoqlar bilan ekin yeri oʻrtasidagi chegara chizigʻi, shuningdek, qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlar va suv fondi yerlari toifasidagi yoʻllar, ariqlar, lotoklar, kanallar, kollektorlar va dryenajlarning qirgʻoqlari boʻylab ekin yerigacha boʻlgan foydalanilmaydigan sugʻorish imkoniyati mavjud va shoʻrlanmagan yerlar.

2. Ekin dalalarining atroflarida foydalanilmasdan qolib ketgan dala yoʻllari.

3. Kanallar, sugʻorish tarmoqlari va kollektor-drenaj tarmoqlarining sohilboʻyi mintaqa maydonlaridan tashqari foydalanilmayotgan yerlar.

**Qishloq xoʻjaligi mahsulotlari yetishtiruvchilari tomonidan dala chetlari hamda kanallar, sugʻorish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi maydonlarda qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini samarali yetishtirilishini tashkil qilish boʻyicha  
CHORA-TADBIRLAR DASTURI**

| <b>T/r</b> | <b>Chora-tadbirlar</b>   | <b>Ijro muddati</b> | <b>Masʻul ijrochilar</b>   |
|------------|--|---------------------|--|
| <b>1.</b>  | Dala chetlari hamda kanallar, sugʻorish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi maydonlarni ikkilamchi ijaraga oluvchilar uchun maqbul sharoitlarni yaratish maqsadida dala chetlarida ekin ekiladigan maydonlar boʻyicha maʼlumotlarni toifalarga (mulkchilik shakli, suv taʼminoti darajasi) ajratish hamda Karantin agentligining “Agrokoʻmakchi” mobil dasturida keng jamoatchilikka eʼlon qilish tizimini yoʻlga qoʻyish. | Ikki oy muddatda    | Oʻsimliklar karantini va himoyasi boʻlimi,<br>Qishloq xoʻjaligi boʻlimi,<br>Suv ytkazib berish DM,<br>Kadastr agentligi,                             |
| <b>2.</b>  | Dala chetlari, kanallar, sugʻorish va kollektor-drenaj tarmoqlarining atroflaridagi maydonlarda, aholi tomorqasi, xonadon va koʻp qavatli uylar oldi hamda maxallaning ichki koʻchalarida mahsulot yetishtiruvchilarni kafolatli xarid qiladigan tadbirkorlar bilan bogʻlash.  | Bir oy muddatda     | Oʻsimliklar karantini va himoyasi boʻlimi,   |
| <b>3.</b>  | Har bir tumandagi hududlarning tuproq-iqlim va suv taʼminoti sharoitini hisobga olgan holda dala chetlarida yetishtiriladigan serdaromad qishloq xoʻjaligi ekinlarini ekish boʻyicha tavsiya ishlab chiqish.<br>Bunda maxalliy sharoitdagi imkoniyatlardagi kelib chiqib, sizot suvi yaqin yerlarga olcha, olxoʻri, bexi, jiyda,   | Bir oy muddatda     | Oʻsimliklar karantini va himoyasi boʻlimi,<br>Fermar, dehqon xoʻjaliklari va tomorqa yer egalari kengashi,<br>Suv ytkazib berish DM,<br>AKIS markazi |

|    |  |                         |  |
|----|--|-------------------------|--|
|    | tut, terak, oshqovoq, supurgi, shirin jo'xori, malina, suvi tanqis yerlarga qizilmiya, uzum, bodom, anor, moyli (kunjut, raps) va dukkakli (zira, no'xot, loviya, mosh) ekinlarga ustuvor e'tibor qaratish.  |                         |  |
| 4. | Har yili 1-martga qadar dala chetlari va sug'orish, kollektor-drenaj atroflaridagi maydonlar tuproqlarini agrokimyoviy taxlildan o'tkazish hamda ekin turlariga mos ravishda mineral o'g'itlarga bo'lgan ilmiy talab ishlab chiqilishini ta'minlash. | Har yili 1-martga qadar | O'simliklar karantini va himoyasi bo'limi, Agrokimyoviy taxlil markazi |